Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI ANIQLASH VA BAHOLASH MEZONLARI

Hamzayeva Nigina Azamjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti,
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash metodlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muhiti sharoitida o'qituvchining pedagogik ijodi hamda ijodiy faolligining ustuvor ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan kasbiy ijodiy faollikning tarkibiy komponentlari yoritilgan. Pedagoglarning kasbiy ijodiy faolligini diagnostika qilishga oid keng tarqalgan yondashuvlar tavsiflanib, aksariyat tadqiqotchilar tomonidan muhim deb e'tirof etilgan asosiy belgilar va baholash mezonlari ajratib ko'rsatilgan. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlashda psixologik-pedagogik yondashuvlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan metodikalar hamda portfel tahlili usullarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy salohiyat, baholash metodlari, bo'lajak o'qituvchi, diagnostika, baholash mezonlari.

Abstract: This article analyzes the methods for identifying and assessing the creative potential of future teachers. The priority role of teachers' pedagogical creativity and creative activity in the context of the modern educational environment is scientifically substantiated. The structural components of professional creative activity are examined from the perspective of developing professional competencies. The most common approaches to diagnosing the components of teachers' professional creative activity are described, and key indicators and evaluation criteria recognized as significant by most researchers are highlighted. In addition, the role of psychological and pedagogical approaches, problem-based methods, and portfolio analysis in identifying the creative potential of future teachers is discussed.

Key words: creative potential, assessment methods, future teacher, diagnostics, evaluation criteria.

Аннотация: В данной статье анализируются методы выявления и оценки творческого потенциала будущих педагогов. Научно обоснована приоритетная роль педагогического творчества и творческой активности учителя в условиях современного образовательного пространства. Рассмотрены структурные компоненты профессиональной творческой активности с точки зрения формирования профессиональных компетенций. Описаны наиболее распространённые подходы к диагностике компонентов профессиональной творческой активности педагогов, а также выделены основные признаки и критерии оценки, признанные значимыми большинством исследователей. Кроме того, освещается роль психолого-педагогических подходов, методик, основанных на проблемных ситуациях, а также анализа портфолио при выявлении творческого потенциала будущих учителей.

Ключевые слова: творческий потенциал, методы оценки, будущий педагог, диагностика, критерии оценки.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish maqsadida ijodkor va mustaqil fikrlovchi o'qituvchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ijodiy salohiyatni rivojlantirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi, o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va o'z fikrini ifodalashga o'rgatishdir. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifadir. Chunki, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomi lashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5188-son Qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining (so'ngra Prezident ta'lim muassasalari agentligi deb nomlangan) ushbu agentlik xuzurida shu kabi jamg'armaning (so'ngra Iqtidorli yoshlarni qo'lab quvvatlash jamg'armasi deb nomlangan) tashkil etilishi yurtimizda ijodkorlik, ijodiy salohiyatni rivojlantirish nechog'lik ahamiyatga molik bo'lgan dolzarb masalalarning biri ekanligidan dalolat beradi ^[1].



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoni integral xarakterga ega bo'lib, u shaxsning faoliyati va xulq-atvorining yo'nalganligi, dinamikligi, samaradorligi hamda original qirralarini aniqlovchi ijodiy shaxsga xos antropologik determinantlar va ijtimoiy-psixologik sifatlarni o'zida mujassam etadi. Shu orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini modellashtirish, o'rganilayotgan pedagogik hodisani chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi va pedagogik tadqiqotlarda empirik hamda nazariy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan, O. Musurmanova, X. Paluanova, K. Riskulova va Z. Kurbaniyazova ijodni "betakorligi, originalligi va ijtimoiy-historik jihatdan noyobligi bilan ajralib turadigan, sifatli yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat" deb ta'riflaydilar. Ularning fikricha, ijodiy shaxs ikki asosiy sifat bilan xarakterlanadi: hayol qilish va intuitsiya. Shu bilan birga, boshqa manbalarda ijodkorlik "madaniy yoki moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan inson faoliyati" sifatida ko'rsatib o'tiladi. D.Z. Raxmanova esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitish amaliyoti jarayonida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi ^[8].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini o'rganish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng yoritilgan. L.A. Filimonyuk, A.P. Tryapitsyna, S.A. Pisareva, L.K. Grebenkina, V.N. Ivanchenko, A.Yu. Mikhailov, N.V. Martishina, K.R. Khachaturova, N.V. Aleksandrova, V.L. Benina, E.G. Votnova, Yu.A. Kiseleva, S.G. Vershlovsky, A.K. Markova, N.N. Tuzova, shuningdek J. Guilford, P. Torrance va E. Tunik kabi olimlar ijodiy salohiyat va ijodkorlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarida ijodiy salohiyatni aniqlash, baholash va rivojlantirish masalalarini keng yoritganlar.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholashda ko'plab metodlar qo'llaniladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: psixodagnostik metodlar, eksperimental metodlar, kvalitatif metodlar. Biroq, ko'pincha integrativ yondashuv qo'llanadi, ya'ni empirik metodlar (test, kuzatuv, so'rov) va nazariy yondashuvlar (adabiyotlar tahlili, konseptual modellashtirish) uyg'unlashtiriladi. Bu esa ijodiy salohiyatni keng qamrovli va tizimli ravishda baholash imkonini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunga kelib Ko'plab ilmiy tadqiqotlar "ijodiy salohiyat" tushunchasining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotchilar ushbu tushunchani turli nuqtai nazardan talqin qilib, uning turli jihatlariga e'tibor qaratadilar. Mavjud ta'riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ijodiy salohiyat – bu shaxsning ijodiy faoliyatni amalga oshirish va aynan shu faoliyat orqali o'zini namoyon etish imkoniyatlari majmuasidir.

Ijodiy salohiyat tizimli tavsifga ega bo'lib, unda yangilikni topish, yangi g'oyalar yaratish, shuningdek original va nostandart qarorlar qabul qilish imkoniyatlari asosiy o'rin egallaydi. Bugungi kunga kelib rivojlangan ijodiy salohiyatga ega shaxsni tarbiyalash muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammo turli omillar va xususiyatlar bilan belgilanadi. Jumladan, shaxsning individual xususiyatlari, uning rivojlanayotgan ijtimoiy muhiti, ta'lim faoliyati tashkil etilishining tuzilmasi, shuningdek ijodiy salohiyat rivojlanish darajasini baholashning murakkabligi va turlicha talqin qilinishi kabi omillar ushbu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

XX–XXI asrlar chegarasida madaniy-tarixiy paradigmalarda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Natijada yuzaga kelgan ma'naviy-axloqiy, siyosiy, iqtisodiy va sotsiokultural vaziyat zamonaviy dunyoda bir ustuvor yo'nalish sifatida sub'ekt sifatida faol, o'z pozitsiyasini aniq belgilay oladigan, hayot sharoitlaridagi o'zgarishlarga tez moslasha oladigan ijodiy shaxsni shakllantirishni talab qilmoqda. Ushbu jarayonda pedagog va ta'lim tizimining roli beqiyosdir. Pedagog deyilganda, biz ruhiy-axloqiy qadriyatlar bilan boy, yuqori madaniy darajaga ega va pedagogik faoliyatida ijodiy hamda gumanistik yondashuvni namoyon qiladigan mutaxassisni nazarda tutamiz ^[10].

Pedagogning ijodiy salohiyati dinamik shaxsiy struktura bo'lib, uning asosini quyidagi komponentlar tashkil etadi:

1. **Qadriyatlarga oid komponent:** professional faoliyatning qadriyatlari, motivlari, kutishlari, tamoyillari, maqsadlari va hokazolar;
2. **Kognitiv komponent:** ijodiy professional faoliyatni tashkil etish usullari haqidagi bilimlar va tasavvurlar majmui;
3. **Faoliyat komponenti:** olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash, tasavvurlar va shaxsiy ijodiy g'oyalarni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish ^[6].

Ushbu elementlarning har biri alohida mavjud bo'lishi va pedagogik amaliyot yoki ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatli faollashtirilishi mumkin. Biroq ularning barchasi birlashganda bir-birini kuchaytiradi va eng muhimi, kelajak pedagogning ijodiy salohiyatini kengaytiradi hamda unga qo'shimcha kuch bag'ishlaydi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Faoliyat komponentiga shuningdek pedagogik vositalardan ijodiy foydalanish ham kiradi. Bunday mahorat pedagogga faol harakatlar, amaliy mashg'ulotlar va treninglar orqali keladi va asta-sekin uning ijodiy salohiyatining tarkibiy qismiga aylanadi. Bu jarayon zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni dastlabki mashq va takomillash-tirishsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Shuningdek, pedagogik vositalarni haqiqiy ijodiy tarzda qo'llash uchun tasavvur faoliyatini faol "faollashtirish" zarur.

1-jadval: **Pedagogning professional ijodiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, olimlar fikriga ko'ra**

Olimlar	Ijodiy qobiliyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar	Xususiyati
S. G. Vershlovskiy	Pedagogning professional va shaxsiy rivojlanishi orqali shaxs ijodiy salohiyatini boyitish.	Ijodiy potentsial va shaxsning ruhiy dunyosi o'sishini ta'kidlaydi.
A. K. Markova	Mavjud bilim va tajribani, kayfiyat va iroda orqali muammoni yechish qobiliyati.	Kreativ faoliyatni shaxsiy kompetensiyalar bilan bog'laydi.
V. L. Benin, E. G. Votnova, Yu. A. Kiselev	- Emotsional va axloqiy yetuklik, gumanist yo'nalish; - Nazariy-kognitiv kompetentsiya- Ixtirochilik, kreativ va loyihaviy ko'nikmalar; - Umumiy eruditlik, madaniy kompetentsiya; - Empatiya, refleksiya, pedagogik moslashuvchanlik; - Professional-pedagogik madaniyat komponentlari; - Muvaffaqiyatga intilish, yuqori motivatsiya va ijodiy faoliyatga ehtiyoj;	Pedagogning ijodiy va professional salohiyatini tizimli ko'rsatkichlar orqali belgilaydi.
G. G. Kolesnikova	- Motivatsion-qadriyatlarga oid komponent; - Kognitiv komponent; - Kommunikativ komponent; - Emotsional-ekspressiv komponent; - Kreativ-instrumental komponent;	Pedagoglarning yuqori, o'rta va past darajadagi ijodiy faoliyatini aniqlash mezonlari.
N. N. Tuzova	- Faoliyat va mustaqillikni rag'batlantirish; - Ichki erkinlikni ta'minlash; - Refleksiya orqali shaxsiy va professional rivojlanish; - Pedagogning qadriyatlari, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olgan ta'lim jarayoni;	Ijodiy salohiyatni shakllantirish psixologik-pedagogik sharoitlarini belgilaydi.
Yu. V. Oskolkova	- Motivatsion bosqich; - Axborot bosqichi; - Jarayon bosqichi (professional ijodiy rivojlanish)	Har bosqichda pedagogik ijodiy ko'nikmalar va shaxsiy-professional sifatlar rivojlanadi: g'oya izlash, refleksiya, pedagogik modellashtirish, doimiy o'zini rivojlantirish va ijodiy potentsialni amaliyotda qo'llash.

* jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Ijodiy salohiyatni aniqlash jarayonida turli ilmiy metod va yondashuvlardan foydalaniladi. Eng avvalo, psixodiagnostik testlar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, J. Guilford va E. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan ijodkorlikni aniqlashga qaratilgan testlar bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fikrlash darajasini baholashda keng qo'llaniladi. Mazkur testlar orqali fikrlash elastikligi, g'oyalar xilma-xilligi hamda ijodiy tasavvur darajasi aniqlanadi. Bunday diagnostik vositalar shaxsning nostandart fikrlash, muammolarga yangicha yondashish va original g'oyalar yaratish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.



2-jadval: **Pedagoglarning professional ijodiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash metodikalari**

No	Metodika	Muallif	Ko'rsatkichlar	Darajalar
1	Ijodiy faoliyatga tayyorgarlik	A.N.Luk	• qiziquvchanlik; • o'ziga ishonch • qat'iyatlilik; • ambitsiyalilik; • eshitish xotirasi – ko'rish xotirasi; • mustaqillikka intilish; • abstrakt fikrlash; • diqqatni jamlay olish.	yuqori; o'rtacha; past;
2	Ijodiy faollikni baholash	M. I. Rojkov, Y.S. Tyunnikov, B. S. Alishev, L. A. Volovich.	• ijodiy faollikka motivatsiya	yuqori; o'rtacha; past;
3	Nutqiy va tasviriy (so'zsiz) kreativlikni baholash	J. Gilford, P. Torrens, E. Tunik	• erkinlik; • moslashuvchanlik • yangilik, noodatiylik; • aniqlik.	Ular individual ko'rsatkich bo'yicha shakllantiriladi, bu ko'rsatkich original javoblar soni, aniqlik, bajarish tezligi va moslashuvchanlik yig'indisiga asoslanadi.
4	Professional ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan loyiha faoliyatiga tayyorgarlikni baholash shkalalari	A. I. Lisovskaya	• kognitiv komponent; • amaliy komponent; • faoliyat komponenti.	yuqori; yuqorilangan; asosiy; asosiy darajadan past;
5	Talabalarning darsda ijodiy faoliyatini tashkil etish ko'nikmasining o'zini baholashi	L. N. Makarova, Y. I. Grigoriyeva	• faoliyat komponenti	yuqori; o'rtacha; past;

Manba: Хачатурова К. Р., Александрова Н. В. Критерии и показатели профессиональной творческой активности педагогов // Человек и образование. 2023. № 4. С. 95–102.

Shuningdek, so'rovnomalar va anketalar yordamida talabalarning kasbiy motivatsiyasi, tashabbus ko'rsatish darajasi, mustaqil fikrlashga moyilligi hamda pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqishi o'rganiladi. Bu usullar orqali bo'lajak pedagoglarning ichki motivlari, kasbiy qadriyatlari va innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi aniqlanadi.

Ijodiy salohiyatni baholashda yana bir muhim metodlardan biri portfolio tahlili hisoblanadi. Ushbu metod orqali talabaning yozma ishlari, dars ishlanmalari, ilmiy loyihalari va amaliy faoliyat natijalari tahlil qilinadi. Portfolio talabaning nafaqat bilim darajasini, balki uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ham ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, muammoli vaziyatlarga asoslangan testlar ham ijodiy salohiyatni aniqlashda samarali hisoblanadi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarga noan'anaviy pedagogik vaziyatlar taqdim etilib, ularning muammoni tahlil qilish, tezkor va samarali yechim topish ko'nikmalari baholanadi. Bunday metodlar pedagogik faoliyatga xos murakkab vaziyatlarda ijodiy fikrlash va moslashuvchan qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi [9].

Bo'lajak pedagoglarda ijodiy salohiyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, muammoli o'qitish texnologiyasi talabalarning mustaqil izlanishini rag'batlantiradi va ularni muammolarni tahlil qilish hamda yechim topishga undaydi. Loyiha asosidagi yondashuv esa talabalarga real hayotga yaqin vazifalarni mustaqil hal qilish imkonini berib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Rolli o'yinlar va imitatsion mashg'ulotlar orqali o'qituvchilik faoliyatiga yaqin sharoitlar yaratiladi.



Bunday mashg'ulotlar talabalarga real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va ularga mos ravishda ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Metaforik tafakkurni rivojlantirish ham ijodiy salohiyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, badiiy adabiyot, hikoyalar va she'riy asarlar orqali talabalarda obrazli va mantiqiy fikrlash uyg'unligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar va adabiyotlar ko'rsatganidek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyati ularning pedagogik faoliyatida muhim rol o'ynaydi va shaxsning original fikrlash, fantaziya, intuitsiya hamda yangi bilim va metodlarni yaratish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy salohiyatni aniqlash va baholash jarayonida shaxsiy xususiyatlar, faoliyatga yondashuv va ijtimoiy-madaniy kontekst yondashuvlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Empirik va nazariy tadqiqotlar asosida ijodiy salohiyatni baholash mezonlari sifatida original yechimlar ishlab chiqarish, muammolarga innovatsion yondashish, fantaziya va intuitsiya darajasi, shuningdek pedagogik faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni tatbiq etish ko'rsatkichlari ajratilgan. Shu bilan birga, ijodiy salohiyatni rivojlantirish va aniqlash uchun integrativ yondashuv – testlar, kuzatuv, intervyu, loyihaviy vazifalar va nazariy modellashtirishni uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini tizimli ravishda baholash va rivojlantirish nafaqat shaxsiy va professional o'sishiga, balki pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudaybergenova Z.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025, №6. B.107–114.
2. Гребенкина Л.К. Формирование профессионализма учителя в системе непрерывного педагогического образования: дис. док. пед. наук. – М., 2000. – 441 с.
3. Иванченко В.Н. Развитие творческого потенциала педагога дополнительного образования в системе повышения квалификации: дис. ... канд. пед. наук. – Ростов-на Дону, 2010. – 210 с.
4. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. Питер, 2009 (СПб.: Печатный двор им. А. М. Горького). 444 с.
5. Киселев Ю. А. Самопроектирование личности как творческий процесс // Научные труды Института непрерывного профессионального образования. 2014. № 5. С. 119–122.
6. Мартишина Н. В. Творческий потенциал педагога: теория и опыт развития // Известия ВГПУ. 2015. № 8 (103). С. 29–36.
7. Михайлов А.Ю. Развитие творческого потенциала будущего педагога в образовательном процессе вуза: автореф. дис. канд. пед. наук. Волгоград, 2006. – 22 с.
8. Рахманова Д.З. Педагогическая практика как системообразующий компонент профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов. Методика преподавания, 2013. -№2. 6 с.
9. Скрипко З. А., Нерадовская О. Р., Лопаткин В. М. Развитие творческого потенциала будущего учителя в процессе профессиональной подготовки (на примере преподавания естественно-научных дисциплин) // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). 2023. Вып. 6 (52). С. 106–112.
10. Филимонюк Л.А., Компонентный анализ творческого потенциала будущего педагога // Вестник университета № 14, 2012 г.
11. Хачатурова К. Р., Александрова Н. В. Критерии и показатели профессиональной творческой активности педагогов // Человек и образование. 2023. № 4. С. 95–102.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.